Hozirgi vaqtda iqtisodchilar "pul oqimi" tushunchasini turlicha talqin qiladilar. Masalan, I.A. Blank pul oqimlarini investorga qaytariladigan pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiyalar samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich deb hisoblaydi. R.A. Breyli va S.S. Mayers esa quyidagicha ta'rif beradi: "Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatidan olinadigan pul oqimi mahsulot sotishdan tushgan tushumdan uning tannarxi, boshqa xarajatlar va soliqlar chiqarilgandan keyin qoladigan mablag'dir" [2].

Ye. Leontev, V.V. Bocharov va N.P. Radkovskayalar esa pul oqimini hisobot yoki rejalashtirilayotgan davr mobaynida tashkilot tomonidan olinadigan yoki to'lanadigan pul mablag'lari hajmi sifatida izohlaydilar [3].

Mahalliy iqtisodchilardan X.X. Xudoyqulov o'zining ilmiy ishlarida aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashda pul oqimlari orqali yondashuvni taklif etib, "chegirmaviy pul oqimlari" tushunchasini ilgari surgan [4].

R.X. Karlibayeva tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari pul oqimlarini tahlil qilishning zamonaviy usullari tadqiq etilgan [5]. Olima aksiyadorlik jamiyatlarida pul oqimlarini tahlil qilishning bevosita va bilvosita usullarini izohlab, pul oqimlarini diskontlash modeliga alohida e'tibor qaratgan.

Sh.A. Masharipova esa aksiyadorlik jamiyatlarining sof pul oqimlarini aniqlash metodikasi bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan. U pul oqimlarini boshqarishda dinamik va statistik ko'rsatkichlardan foydalanishga oid ilmiy qarashlarni bayon etgan [6].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, pul oqimini muayyan loyiha amalga oshirilishi yoki muayyan aktivdan foydalanish natijasida ma'lum vaqt oralig'ida shakllanadigan pul kirimi va chiqimi yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korporatsiyalarning pul oqimlarini optimallashtirish jarayonini o'rganishda ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, solishtirma tahlil, omilli tahlil, bevosita va bilvosita tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida pul mablag'lari kirimi va chiqimi, sof pul oqimi, likvidlik, moliyaviy barqarorlik hamda pul oqimlarining korporatsiya moliyaviy holatiga ta'siri baholandi. Shuningdek, Biver koeffitsiyenti, sof pul oqimi yetarliligi koeffitsiyenti, sof pul oqimi rentabelligi, stress-test va integral samaradorlik indeksi orqali pul oqimlarini kompleks tahlil qilishga e'tibor qaratildi. Ushbu metodologik yondashuv korporativ tuzilmalarda pul oqimlarini samarali boshqarish va ularning optimal hajmini belgilash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korporativ tuzilmalarning moliyaviy mustaqilligi va bozor sharoitlariga moslashuvchanligi izchil ortib bormoqda. Bunday sharoitda pul mablag'lari harakatini samarali boshqarish, ayniqsa, pul oqimlarini optimallashtirish korporativ tuzilmalar faoliyati samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

— korporativ tuzilmalarning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati ko'p jihatdan pul oqimlarining mutanosibligiga bog'liq. Amaliyotda foyda ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan korxonalarda ham naqd pul mablag'lari yetishmasligi sababli vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois pul oqimlarini optimallashtirish likvidlik xavfini kamaytirishning muhim vositasi hisoblanadi;



— investitsion faollikning ortishi sharoitida korporativ tuzilmalarning investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari ko'p jihatdan erkin pul oqimlari hajmi va ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Pul oqimlarini optimal boshqarish investitsiya qarorlarining sifatini oshirish va kapital qiymatini ko'paytirish imkonini beradi;


— tashqi va ichki iqtisodiy risklar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda korporativ tuzilmalarda pul mablag'lari harakatini prognozlash va rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa moliyaviy risklarni samarali boshqarish va korporativ barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi [7];

— respublikamizda korporativ sektorni isloh qilish, kapital bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini keng joriy etish sharoitida pul oqimlarini tahlil qilish hamda boshqarishning zamonaviy instrumentlarini amaliyotga tatbiq etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu holatlar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korporativ tuzilmalarning pul oqimlarini optimallashtirish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni chuqur o'rganish hamda ularni milliy iqtisodiyot xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishni talab etadi.

Demak, korporativ tuzilmalarning faoliyati bevosita pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning kelib tushishi va chiqib ketishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon korporativ tuzilma manfaatlari yo'lida mablag'larni samarali boshqarishni talab qiladi. Pul oqimini boshqarish pul mablag'larining kelib tushishi va chiqib ketishini optimal hisob-kitoblar asosida muvozanatlashtirishni anglatadi. Pul oqimlarini samarali boshqarish korporativ tuzilmaning moliyaviy natijalarini yaxshilash, likvidlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pul mablag'larini tahlil qilishdan maqsad ularning joriy oqimini baholash va optimal hajmini belgilash bo'yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat. Pul mablag'larini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (1-rasm).



1-rasm. Pul mablag'larini tahlil qilishning vazifalari

Pul oqimini boshqarish usullarini tanlashda, avvalo, unga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish zarur. Ushbu omillar tashqi va ichki omillarga bo'linadi:

1. Ichki omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi: korporativ tuzilmaning hayotiylik sikli, operatsion siklning davomiyligi, ishlab chiqarish va realizatsiyaning mavsumiyligi, investitsiya dasturlarining dolzarbligi, amortizatsiya siyosati va boshqalar.

2. Tashqi omillar esa quyidagilardan iborat: tovar bozori holati, fond bozori holati, korporativ tuzilmalarning soliq tizimi, ta'minotchilar va korporativ tuzilmalarni kreditlash tizimi, hisob-kitob operatsiyalari tizimi, kredit resurslarining mavjudligi hamda maqsadli mablag'larni qaytarilmaslik sharti asosida jalb qilish imkoniyati.

Ushbu xususiyatlar, pul oqimlarining tasnifi, korporativ tuzilma faoliyatining o'ziga xos jihatlari, hayotiylik sikli, tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda pul oqimlarini tahlil qilishning quyidagi usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Solishtirma tahlil;
2. Omilli tahlil;



3. Pul oqimi harakatini bevosita, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tahlil qilish usuli;
4. Pul mablag'lari harakatini bilvosita tahlil qilish usuli.

Solishtirma tahlil usuli korporativ tuzilmaning ayrim ko'rsatkichlarini shu'ba korporativ tuzilmalar, bo'limlar, sexlar, raqobatchilar, o'tgan davrlar ko'rsatkichlari va boshqa mezonlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Omilli tahlil esa alohida omillarning pul oqimidagi umumiy o'zgarishlarga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Pul oqimini tahlil qilishning asosiy usullari bevosita va bilvosita tahlil qilish usullaridir. Bevosita tahlil qilish usuli hisob-kitob tartibining soddaligi bilan ajralib turadi hamda mahalliy buxgalterlar va moliyachilar uchun qulay hisoblanadi. Ushbu usul uzoq muddatda korporativ tuzilmaning likvidlik darajasini baholash imkonini beradi. Bevosita tahlil korporativ tuzilma egalari va potensial kreditorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Korporativ tuzilma egalari pul mablag'larining kelib tushishi va chiqib ketishi tuzilmasi haqida obyektiv ma'lumotga ega bo'lgan holda dividend siyosati, foydani taqsimlash, xarajatlarni boshqarish hamda qo'shimcha investitsiyalar hajmini belgilash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Potensial kreditorlar va investorlar esa korporativ tuzilmaning foyda olish imkoniyatlari hamda uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari baholaydilar.

Pul mablag'larini tahlil qilishning bevosita usuli korporativ tuzilma hisobvarag'idagi pul mablag'lari harakatini tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu usul quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- pul kirimining asosiy manbalari va chiqim yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi;
- joriy majburiyatlar bo'yicha to'lovlar uchun mablag'lar yetarililigi tezkor baholash imkonini beradi;
- hisobot davrida realizatsiya va pul tushumining o'zaro bog'liqligini obyektiv ko'rsatadi;
- hisob-kitob tartibining soddaligi bilan ajralib turadi;
- buxgalteriya hisobotlari registrlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi;
- zarur ko'rsatkichlarni hisoblash, pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishini nazorat qilishda qulaylik yaratadi.

Bilvosita usul analitik nuqtai nazardan afzalroq hisoblanadi, chunki u moliyaviy natijalar bilan erkin pul oqimi o'rtasidagi farqlarning sabablarini tushuntirish imkonini beradi. Bilvosita tahlilning maqsadi moliyaviy natija bilan pul mablag'larining kelib tushishi va chiqib ketishi o'rtasidagi farq sabablarini aniqlashdan iborat. Uning mohiyati korporativ tuzilmaning sof foydasini pul mablag'lari miqdoriga aylantirishdan iboratdir. Bunda har bir korporativ tuzilma faoliyatida foydani kamaytiruvchi yoki ko'paytiruvchi, ammo pul mablag'lari harakatiga bevosita ta'sir qilmaydigan xarajat va daromad turlari mavjudligi hisobga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, pul oqimini tahlil qilish usuli tahlil maqsadlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi lozim. To'g'ridan-to'g'ri usul pul mablag'lari harakatini hisobvaraqlar bo'yicha tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu usul asosiy pul kirimi va chiqimi yo'nalishlarini, realizatsiya hamda pul tushumining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Mazkur usul tushunish uchun qulay bo'lsa-da, uni amalga oshirish jarayoni nisbatan ko'proq mehnat talab qiladi.

Bilvosita usul esa balans va moliyaviy natijalar hisoboti moddalarini tahliliga asoslanadi. U korporativ tuzilma faoliyatining turli yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, sof foyda bilan aktivlar o'zgarishi o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettiradi. Mazkur usul mazmunan chuqur tahliliy yondashuvni talab qilsa-da, amaliy jihatdan samarali qo'llash imkonini beradi. O'tkazilgan tahlil ushbu sohadagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, pul oqimini boshqarishni tahlil qilishning zamonaviy usullarini aniqlash zarurligini ko'rsatadi.

Pul oqimlarini tahlil qilishda quyidagi koeffitsiyentlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Biver koeffitsiyenti = (Sof foyda + amortizatsiya ajratmasi) / Majburiyatlar.

Sof pul oqimining yetariligi koeffitsiyenti = Sof pul oqimi / (majburiyatlar bo'yicha to'lovlar + moddiy aylanma aktivlar qoldig'ining o'sishi + dividendlar).

Sof pul oqimining rentabelligi = sof foyda / sof pul oqimi × 100 %.

Biver koeffitsiyenti korporativ tuzilmaning moliyaviy barqarorligi va qarzlarni o'z vaqtida qoplash qobiliyatini baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent korporativ tuzilma pul oqimlarini baholashda muhim analitik ahamiyatga ega, chunki:

- "foйда + amortizatsiya" asosida operatsion pul oqimining soddalashtirilgan modelini shakllantiradi;
- korporativ tuzilmaning qarzlarni o'z vaqtida qoplash qobiliyatini real pul oqimi bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi;
- pul oqimlari barqarorligi, moliyaviy mustahkamlik va bankrotlik xavfiga oid signal funksiyasini bajaradi;
- to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita pul oqimi tahlillarida izohlovchi hamda muqobil ko'rsatkich sifatida foydalaniladi.

Shu sababli Biver koeffitsiyentini pul oqimlari tahlilidan ajratib bo'lmaydi. U korporativ tuzilmaning moliyaviy barqarorligi va pul oqimlarining haqiqiy quvvatini baholashda asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyentni boshqa moliyaviy koeffitsiyentlar bilan birgalikda qo'llash yuqori aniqlikdagi xulosalar chiqarish imkonini beradi (1-jadval).



1-jadval

Korporativ tuzilmaning moliyaviy holatini aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi

Koeffi-siyent	Formulasi	1-guruh:	2-guruh:	3-guruh:
		moliyaviy barqaror	bankrotlikkacha 5 yil	bankrotlikkacha 1 yil
Biver koeffitsiyenti	$\frac{\text{Sof foyda} + \text{amortizatsiya}}{\text{Majburiyatlar}}$	0,4 dan 0,17 gacha	0,17 dan -0,15 gacha	-0,15 dan kichik
Aktivlar rentabelligi, %	$\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Aktivlar}} \cdot 100$	6-8	4	-22
Moliyaviy richag	$\frac{\text{Majburiyatlar}}{\text{Aktivlar}}$	<0,37	<0,5	<0,8
Aktivlarni o'z aylanma mablag'lari bilan qoplash koeffitsiyenti	$\frac{\text{XK-UMA}}{\text{Aktivlar}}$	0,4	<0,3	<0,06
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	$\frac{\text{Aylanma aktivlar}}{\text{Majburiyatlar}}$	<3,2	<2	<1

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, Biver koeffitsiyenti korporativ tuzilmalarda amortizatsiyaning pul oqimiga ta'sirini aniqlash, foyda va pul oqimi o'rtasidagi farqni izohlash uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Pul oqimlarini samarali boshqarish korporativ tuzilmaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Boshqaruvning asosiy maqsadi esa strategik rivojlanish rejalarini inobatga olgan holda daromad va xarajatlar o'rtasida muvozanatga erishishdan iborat. Korporativ tuzilmalarda pul oqimlarini boshqarishning eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri ularni optimallashtirish hisoblanadi. Pul oqimlarini optimallashtirish deganda korporativ tuzilmaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish shart-sharoitlari va xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unda pul mablag'lari harakatini tashkil etishning eng maqbul shakllarini tanlash jarayoni tushuniladi.

Korporativ tuzilmaning ichki pul resurslari odatda cheklangan bo'ladi. Ko'p hollarda tashqi moliyalashtirishni jalb qilish imkoniyati yetarli bo'lmasligi yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq kelmasligi mumkin. Shu bilan birga, har qanday biznesda ichki rezervlar mavjud bo'lib, ularni pul oqimlarini optimallashtirish jarayonida aniqlash va samarali yo'naltirish mumkin. Biznes muvaffaqiyati, asosan, mavjud pul manbalaridan qanchalik samarali foydalanilgani va ularning sarflanishi qay darajada optimal tashkil etilganiga bog'liq.

Pul oqimlarini optimallashtirish biznes va tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda pul mablag'lari harakatining samarali sxemasini ishlab chiqish jarayonidir. Bu jarayon foydani tahlil qilish va byudjetlashtirish doirasida amalga oshiriladi. To'g'ri tashkil etilgan optimallashtirishning asosiy natijasi sof pul oqimining o'sishi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishida namoyon bo'ladi.

Optimallashtirish quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- hisob va amortizatsiya siyosatini takomillashtirish orqali soliq yukini maqbullashtirish;
- operatsion faoliyatning daromaddorligini oshiruvchi samarali narx siyosatini joriy etish;
- debitorlik qarzini oqilona boshqarish, talab va da'vo ishlarini kuchaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish;
- mahsulot raqobatbardoshligini oshirish.

Ushbu tadbirlar natijasida korporativ tuzilmada qayta taqsimlash mumkin bo'lgan pul oqimlari aniqlanadi. Ularning samarali boshqarilishi moliyaviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga, likvidlikning mustahkamlanishiga va korporativ tuzilmaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



Pul oqimlarini optimallashtirish daromad va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan muhim moliyaviy boshqaruv jarayonidir. Muvozanatning buzilishi pul resurslarining yetishmasligi yoki ortiqchaligi orqali namoyon bo'lishi mumkin. Har ikki holat ham korporativ tuzilmaning moliyaviy natijalariga ta'sir etadi. Shu sababli pul oqimlarini doimiy monitoring qilish va ularni optimal darajada boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Pul mablag'lari taqchilligi to'lov qobiliyati va likvidlik darajasining pasayishi, majburiyatlar bo'yicha qarzdorlikning ortishi, jumladan, kontragentlar oldidagi qarzlar, bank kreditlari bo'yicha qarzlar va ish haqi to'lovlarining kechikishi hamda kapital aylanish muddatining uzayishi kabi holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Ortiqcha pul mablag'larining mavjudligi esa inflyatsiya sharoitida pulning real qiymati pasayishi, vaqtincha bo'sh mablag'lardan investitsion maqsadlarda foydalanilmasligi hamda o'z kapitali rentabelligi va aylanish tezligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Pul mablag'lari kirimi va chiqimi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash sof pul oqimi likvidligini saqlash, korporativ tuzilmaning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Pul oqimlarini optimallashtirishning dastlabki bosqichida pul oqimlarini prognoz qilish hamda neytrallashtirilish darajasi bo'yicha tasniflash zarur.

Neytrallashtirilish darajasi kelgusida pul oqimini o'zgartirish imkoniyatini anglatadi. Masalan, soliqli to'lovlari aniq belgilangan va majburiy xarakterga ega bo'lgani sababli ular neytrallashtirilmaydi. Mol yetkazib beruvchilar bilan to'lov muddatlarini kelishuv asosida o'zgartirish imkoniyati mavjud bo'lgani uchun bunday pul oqimlari yuqori darajada neytrallashtirish hisoblanadi.

Prognoz qilish darajasi pul oqimining yuzaga kelish ehtimolini ifodalaydi. Ular to'liq prognoz qilinuvchi, qisman prognoz qilinuvchi va mutlaqo prognoz qilib bo'lmaydigan toifalarga ajratiladi.

Mutlaqo prognoz qilib bo'lmaydigan va o'zgartirib bo'lmaydigan pul oqimlari optimallashtirish jarayoniga bevosita jalb etilmaydi.

Pul oqimlarini barqarorlashtirishda vaqt omili muhim ahamiyatga ega. Bunda asosiy maqsad pul kirimi va chiqimlarining keskin tebranishlarini kamaytirish hamda ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlashdan iborat. Bu jarayonda sinxronlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi, chunki u ma'lum bir vaqt oralig'ida musbat, ya'ni kelib tushuvchi pul oqimlari hamda manfiy, ya'ni chiqib ketuvchi pul oqimlari o'rtasidagi moslikni anglatadi. Uni baholashda korrelyatsiya koeffitsiyenti qo'llaniladi. Ideal holatda ushbu koeffitsiyent +1 ga yaqin bo'lishi maqsadga muvofiq. Sinxronlikning yetarli darajada ta'minlanishi korporativ tuzilmaning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi, ayniqsa mavsumiy bizneslarda bu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul oqimlarini optimallashtirishning yakuniy maqsadi sof pul oqimini maksimal darajada oshirishdan iborat. Optimallashtirilgan pul oqimlari korporativ tuzilmaning tashqi mablag'larga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi hamda ichki moliyaviy imkoniyatlar hisobidan iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini oshirishga xizmat qiladi.

Pul oqimlari sxemasini optimallashtirish maqsadida quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Kiruvchi pul oqimini oshirish usullari:

- tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha to'liq yoki qisman oldindan to'lov olish;
- to'lovni kechiktirish asosida realizatsiya qilish va ichki kredit berish amaliyotini maqbullashtirish;
- nolikvid mahsulotlarga chegirmalar qo'llash orqali sotuv aylanmasini oshirish;
- debitorlik qarzini faol va oqilona boshqarish;
- korporativ tuzilmani restrukturizatsiya qilish;
- investorlar yoki sheriklarni jalb qilish;
- foydalanilmayotgan aktivlarni sotish.

2. Chiquvchi pul oqimini kamaytirish usullari:

- mol yetkazib beruvchilar bilan to'lov shartlarini kelishish yoki to'lov muddatini uzaytirish;
- qisqa muddatli qarzlarni uzoq muddatli qarzlarga almashtirish;
- aktivlarni lizing orqali sotib olish;
- soliqlarni optimallashtirish;
- xarajatlarni maqbullashtirish.

Keltirilgan usullardan qaysi birini tanlash korporativ tuzilmaning qisqa va uzoq muddatli maqsadlari, moliyaviy imkoniyatlari hamda rivojlanish strategiyasiga bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimizda korporativ tuzilmalar pul oqimlarini optimallashtirishda xorijiy tajribani o'rgangan holda quyidagi ilmiy takliflarni ilgari suramiz. Birinchidan, korporativ tuzilmalarda pul oqimlarining dinamik muvozanat ko'rsatkichi (DMk)dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkich korporativ tuzilmalarning operatsion pul oqimlarini investitsiya xarajatlari va qarzlarga xizmat ko'rsatish xarajatlari



yig'indisiga nisbati sifatida aniqlanishi lozim. Mazkur ko'rsatkichning maqbul oralig'ini belgilash orqali pul oqimlarini avtomatik tarzda tartibga solish imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, korporativ tuzilmalar pul oqimlarining stress-test asosida muayyan omillar ta'siridagi o'zgarishlarini baholash zarur. Ma'lumki, pul oqimlari turli iqtisodiy omillar, jumladan, valyuta kursining o'zgarishi, foiz stavkalarining oshishi, sotuv hajmining kamayishi, debitorlik qarzlarning o'z vaqtida qaytarilmasligi va boshqa omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Ana shunday omillar ta'sirida korporativ tuzilma pul oqimining ijobiy holatini saqlab qolish imkonini beruvchi "zararsizlik nuqtasi" aniqlanadi. Ushbu mexanizm tijorat banklarida foydalaniladigan stress-test usullarini korporativ tuzilmalar amaliyotiga tatbiq etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Uchinchidan, korporativ tuzilmalarda pul oqimlarining integral samaradorlik indeksi (ISI)ni joriy etish va undan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu indeks asosini eng muhim moliyaviy ko'rsatkichlar — likvidlilik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik va risk darajasi tashkil etadi. Har bir ko'rsatkichning yakuniy integral ko'rsatkichdagi ahamiyatidan kelib chiqib, vazn koeffitsiyentlari belgilanadi. Umumiy holatda mazkur ko'rsatkichni quyidagicha ifodalash mumkin: $ISI = Lw1 + Rew2 + Bw3 + Rw4$. Ushbu ko'rsatkich orqali korporativ tuzilma pul oqimlarini kompleks baholash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Корпоративные финансы: учебник / коллектив авторов; под ред. М.А. Эскиндарова. — Москва: КНОРУС, 2020. — 480 с.
2. Брейли Р., Майерс С. Принципы корпоративных финансов. — Москва: Тройка-Диалог, 2004. — С. 458.
3. Леонтьев Е., Бочаров В.В., Радковская Н.П. Корпоративные финансы. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 354 с.
4. Худойкулов Х.Х. Акциядорлик жамиятларининг капитал қийматини баҳолашда чегирмавий пул оқимлар усулидан фойдаланишдаги муаммолар // Илм-фан ва инновацион ривожланиш. — 2020. — № 1. — Б. 32–39.
5. Карлибаева Р.Х. Акциядорлик жамиятларида молиявий менежмент тизимини самарали ташкил этиш йўллари: дисс. автореферати. И.ф.д. — Тошкент, 2018. — 14 б.
- Машарипова Ш.А. Современные методы анализа денежных потоков в акционерных обществах: на примере АО «Узкимёсаноат» // Innovations in Science and Technologies. — 2025. — Т. 2, № 9. — С. 291–299. <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/1291>
- Зайналов Д.Р., Латипова Ш.М., Данияров К.Д. Повышение роли финансово-кредитных механизмов воздействия на деловую активность фермерских хозяйств в условиях динамичного развития аграрного сектора Узбекистана // Направления повышения стратегической конкурентоспособности аграрного сектора экономики. — 2015. — С. 77–87.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>